2. Logistika tizimini rivojlantirish – tezkor va ishonchli yetkazib berish xizmatlarini kengaytirish, tarqatuv punktlarini tashkil etish va outsorsing asosida kuryerlik xizmatlarini yo'lga qo'yish.

3. Tovar va xizmatlar sifati kafolatlash – iste'molchilar ishonchini mustahkamlash maqsadida sertifikatlashtirish tizimini joriy etish va tovar ma'lumotlarining shaffofligini ta'minlash.

4. Huquqiy me'yorlarni takomillashtirish – elektron tijoratga oid qonunchilikni rivojlantirish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va xalqaro tajribani joriy etish.

5. Marketing strategiyalarini rivojlantirish – elektron tijorat platformalarining ommalashishini ta'minlash uchun raqamli reklama va chegirmalar tizimini kengaytirish.

6. Mahalliy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash – milliy brendlarning rivojlanishini rag'batlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni elektron tijorat tizimlariga integratsiyalashuvini qo'llab-quvvatlash.

7. Mintaqaviy ehtiyojlarga mos tovar turlarini kengaytirish – iste'molchilarning talabini tahlil qilib, ularga mos tovar va xizmatlarni taklif etish.

Xulosa qilib aytganda, elektron tijorat infratuzilmasini rivojlantirish, logistika tarmog'ini kengaytirish va mahalliy ehtiyojlarga mos tovar taklif etish muhim strategik yo'nalishlardir. Ushbu chora-tadbirlar O'zbekistonda elektron tijorat ekotizimining raqobatbardoshligini oshirish va iste'molchilar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

“Xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijoratni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili” nomli ijtimoiy so'rovnoma <https://docs.google.com>¹ platformasi orqali onlayn shaklda o'tkazildi. So'rovnoma bir oy, 2025-yil 4-yanvardan 2025-yil 4-fevralgacha davom etdi. So'rovnomada Toshkent shahri, Samarqand, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlaridan 354 nafar respondentlar ishtirok etgan. Respondentlar Toshkent shahri, viloyat markazlari, tuman markazlari va qishloq joylarida istiqomat qilishi keltirilgan.

Tadqiqotimiz boshida respondentlarning umumiy-ijtimoiy portretini shakllantirish maqsadida so'rovnomamizning boshidagi uchta savol natijalarini ko'rib chiqsak (1-jadval).

1-jadval. Respondentlarning umumiy-ijtimoiy portreti²

№	Savol	1-javob	2-javob	3-javob	4-javob
1.	Yoshingiz nechchida?	18-25	26-35	36-45	46 va undan katta
	Natijalar (%)	20,7	39,7	30,2	9,4
2.	Sizning yashash joyingiz qayerda?	Toshkent shahri	Viloyat markazi	Tuman markazi	Qishloq hududi
	Natijalar (%)	8,6	53,4	12,1	25,9
3.	Ish faoliyatingizning turi qanday?	Yollanma ishchi (oylik yoki haq evaziga ishlovchi ishchi)	Xususiy tadbirkor	Talaba	Vaqtincha ishsiz yoki uy bekasi
	Natijalar (%)	67,5	7	20,2	5,3

Tahlil natijalari respondentlarning yosh guruhlariga qarab elektron tijoratga bo'lgan munosabatlari va ish faoliyatining ushbu jarayonga ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Asosiy auditoriya 26-45 yoshdagi foydalanuvchilar bo'lib, ular uchun sifat va ishonchlilik ustuvor ahamiyat kasb etadi.

1 <https://docs.google.com/forms/d/16yOlyJkBWsqIVBwDmRKNm96mkX0bAjnnmVoNyYIn4M/edit#responses>

2 Muallif tomonidan ijtimoiy so'rovnoma natijalari asosida tuzib chiqilgan.



- 26-35 yosh (39,7 foizni) – elektron tijorat texnologiyalariga eng tez moslashuvchi va raqamli xizmatlardan faol foydalanuvchi guruh. Moliyaviy barqarorlik ularga muntazam xaridlarni amalga oshirish imkonini beradi.

- 36-45 yosh (30,2 foizni) – tajribali mutaxassislar va o'rta rahbarlar orasida keng tarqalgan. Elektron tijoratdan ehtiyotkorlik bilan foydalansalar-da, barqaror daromadlari yirik xaridlarni amalga oshirish imkonini yaratadi.

- 18-25 yosh (20,7 foizni) – talabalar va yosh mutaxassislar raqamli texnologiyalarni yaxshi bilsalar-da, xarid imkoniyatlari cheklangan, chunki, moliyaviy jixatdan to'liq mustaqillikka hali erishmagan. Mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali xarid qilishga moyilligi yuqori.

- 46 va undan katta yoshlilar (9,4 foizni) – an'anaviy usullarga sodiq bo'lib, elektron tijoratdan kam foydalanadi. Moliyaviy imkoniyatlari yaxshi bo'lishiga qaramay, ishonch va qo'llab-quvvatlash tizimlariga ehtiyoj seziladi.

Hududiy tahlil shuni ko'rsatadiki, elektron tijoratga talab viloyat markazlarida yuqori (53,4 foizni), bu hududlarda xizmatlarni kengaytirish dolzarb. Qishloq hududlarida (25,9 foizni) va tuman markazlarida (12,1 foizni) xizmatlar cheklangan bo'lib, bu internet infratuzilmasini rivojlantirish zarurligini anglatadi. Toshkent shahrida respondentlar ulushi (8,6 foizni) past bo'lsa-da, bu natija so'rov geografiasiga bog'liq deb hisoblaymiz.

Ijtimoiy maqom bo'yicha:


- yollanma ishchilar (67,5 foizni) – barqaror daromadga ega bo'lib, ularga kafolatlangan tovarlar va ishonchli xizmatlar muhim;

- talabalar (20,2 foizni) – tezkor va arzon xizmatlarga ehtiyoj sezadi;

- tadbirkorlar (7 foizni) – masofaviy ish va elektron tijorat orqali xizmat ko'rsatish imkoniyatlari muhim.

Natijalar elektron tijoratni rivojlantirish strategiyalarini yosh va ijtimoiy guruhlariga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, viloyat markazlarida xizmatlarni kengaytirish, qishloq hududlarida esa internet infratuzilmasini rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Dunyo bo'yicha elektron tijoratdan ko'proq foydalanishga moyil bo'lgan shaxslar asosan yosh, ijtimoiy-iqtisodiy holat, ta'lim darajasi va yashash joyiga qarab farqlanadi[2]. Birinchidan, 18–35 yoshdagi shaxslar, ayniqsa talabalar va yosh mutaxassislar, onlayn xaridlarni qulaylik va vaqt tejamlorligi nuqtayi nazaridan afzal ko'radi. Ikkinchidan, o'rtacha va yuqori daromadli iste'molchilar sifat va keng assortimentni qadrlab, elektron tijorat imkoniyatlaridan keng foydalanadi. Uchinchidan, oliy ma'lumotli shaxslar texnologiyalarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lib, onlayn xaridlarga ishonchi yuqori. To'rtinchidan, innovatsion texnologiyalarga qiziqadigan iste'molchilar yangi platformalarni sinab ko'rishga moyil. Beshinchidan, yirik shahar va viloyat markazlarida yashovchilar infratuzilmaning rivojlanganligi sababli elektron tijoratdan faol foydalanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lgan shaxslar asosiy auditoriyani tashkil etadi. Ushbu omillar global tendensiyalar bilan uyg'un bo'lib, O'zbekistonda ham elektron tijoratning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda (1-rasm).




1-rasm. Respondentlarning elektron tijoratdan foydalanish chastotasi³ (foizda).

Bugungi kunda, Toshkent shahri va viloyat markazlarida 7860,2 ming nafar⁴ fuqaro istiqomat qilishi ma'lum, shundan 55 foizini mehnat resurslari deb hisoblasak 4323,1 ming kishini tashkil etadi. Ushbu mehnat resurslaridan 35 foizini 26-46 yoshgacha bo'lganlar tashkil etishini hisoblasak, 1513,1 ming nafar elektron tijoratning potensial xaridorlari mavjudligini ko'rishimiz mumkin (2-rasm).

³ Muallif tomonidan ijtimoiy so'rovnoma natijalari asosida tuzib chiqilgan.

⁴ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>



2-rasm. Respondentlarning elektron tijorat orqali qaysi xizmatlardan foydalanishi⁵ (foizda).

So'rovnoma natijalari elektron tijorat orqali eng ko'p foydalaniladigan xizmatlarni quyidagicha taqsimlaydi:

1. Tovar sotib olish (Marketplace) – 67 foizni. Tovar sotib olish elektron tijoratning eng keng tarqalgan va ommabop shakli bo'lib, bu platformalar foydalanuvchilarga qulay interfeys, raqobatbardosh narxlar va keng tovar tanlovini taqdim etadi.

2. Taom va yetkazib berish xizmatlari – 56,5 foizni. Shaharlarda keng tarqalgan bu xizmatlar pandemiya davrida sezilarli o'sishni ko'rsatdi.

3. Moliyaviy xizmatlar – 39,1 foizni. Kreditlar, sarmoya qilish va valyuta almashish kabi xizmatlar elektron tijorat platformalarida rivojlanmoqda.

4. Transport, turizm va sayohat xizmatlari – 36,5 foizni. Elektron tijoratda sayohat va transport xizmatlari kengaymoqda, foydalanuvchilarga moslashtirilgan va arzon xizmatlar taklif etilmoqda.

5. Onlayn ta'lim va konsalting – 26,1 foizni. Bu xizmatlar malaka oshirish va professional maslahat olish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Geosiyosiy cheklavlardan holi ekanligi uni tobora ommalashtirmoqda.

6. Boshqa xizmatlar – 26,1 foizni. Yangi va innovatsion xizmatlarga qiziqish ortmoqda, lekin ularning rivojlanishi va ommalashishi uchun vaqt talab qilinadi.

Bu natijalar elektron tijoratning turli sohalarida o'sishini va foydalanuvchilarga qulay, tezkor xizmatlar taklif etilishini ko'rsatadi. Har bir soha o'zining o'ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Dunyo bo'yicha elektron tijorat orqali eng ko'p foydalaniladigan xizmatlar quyidagilar[11]:


1. Tovar sotib olish (Marketplace). Elektron tijoratning eng mashhur va keng tarqalgan shakli bo'lib, Aliexpress, Amazon, eBay va Walmart kabi platformalar orqali xaridorlar turli tovarlarni qulay narxlar va tez yetkazib berish shartlari bilan xarid qilish imkoniyatiga ega.

2. Taom va yetkazib berish xizmatlari. Uber Eats va DoorDash kabi xizmatlar, ayniqsa pandemiya davrida kengayib, uyda qolgan aholiga oziq-ovqat va boshqa tovarlarni onlayn buyurtma qilish imkoniyatini taqdim etdi.

3. Transport, turizm va sayohat xizmatlari. Expedia va Booking.com kabi platformalar yordamida sayohat qilish osonlashdi, bu esa odamlarning sayohat qilishga bo'lgan qiziqishini oshirdi.

4. Onlayn ta'lim va konsalting. Coursera va Udemy kabi ta'lim platformalari, o'z vaqtida malaka oshirish yoki yangi bilimlar olishni istaganlarga qulay imkoniyatlar yaratadi.

5. Moliyaviy xizmatlar. PayPal va Stripe kabi onlayn to'lov tizimlari, xarid qilish va moliyaviy operatsiyalarni tez va xavfsiz amalga oshirishni ta'minlaydi (3-rasm).



3-rasm. Respondentlarning elektron tijorat platformasidan qaysi qurilma orqali foydalanishi⁶ (foizda).

5 Muallif tomonidan ijtimoiy so'rovnoma natijalari asosida tuzib chiqilgan.

6 Muallif tomonidan ijtimoiy so'rovnoma natijalari asosida tuzib chiqilgan.



Elektron tijoratda xaridlarning 88,7 foizni mobil telefonlar orqali amalga oshirilishi, foydalanuvchilarning qulaylik va tezlikni afzal ko'rishini ko'rsatadi. Mobil qurilmalar yordamida istalgan joyda va vaqtda xarid qilish imkoniyati mavjud bo'lib, bu jarayon oddiy va intuitivdir. Mobil ilovalar va internetga ulanish imkoniyatlari esa onlayn xaridlarni yanada osonlashtiradi.


Mobil telefonlarning yuqori ulushi, raqamli iqtisodiyotda mobil texnologiyalarning o'sishini ko'rsatadi. Odamlar ko'pincha ish joyida yoki uyda emas, balki harakatda bo'lganda ham xarid qilishni xohlashadi.

Kompyuterlar 6,1 foizni foiz bilan nisbatan past ulushga ega. Bu, asosan, ish joyida yoki uyda kompyuterdan foydalanishning cheklanganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq, ba'zi foydalanuvchilar katta ekran orqali xarid qilishni afzal ko'rishlari mumkin.

Planshetlar faqat 0,9 foizni ni tashkil etadi. Bu past ko'rsatkich planshetlarning mobil telefonlar va kompyuterlarga nisbatan kamroq ishlatilishini ko'rsatadi. Planshetlar odatda onlayn kontentni ko'rish uchun ishlatiladi, lekin xarid qilishda kamroq afzal ko'riladi.

Boshqalar 4,3 foizni tashkil etadi. Bu kategoriya ichiga smart TV yoki boshqa raqamli qurilmalar kirishi mumkin.

Dunyo bo'ylab elektron tijoratda mobil qurilmalar orqali amalga oshiriladigan xaridlar ulushi sezilarli darajada oshib bormoqda. Statista ma'lumotlariga ko'ra, onlayn chakana savdo buyurtmalarining 61 foizi[12] mobil telefonlar orqali amalga oshirilmoqda. Xitoyda mobil qurilmalar orqali onlayn xaridlar umumiy savdoning 75 foizini tashkil etadi, bu esa 873,3 milliard AQSh dollariga tengdir. Mamlakatda 852,2 million smartfon foydalanuvchisi mavjud bo'lib, bu aholining 59,9 foizini[6] tashkil etadi. Ushbu tendensiya global miqyosda ham kuzatilmoqda, chunki smartfonlar va mobil ilovalarning rivojlanishi bilan ko'proq odamlar mobil qurilmalar orqali xarid qilishmoqda. Bu mobil tijoratni o'sishiga olib keladi (4-rasm).



4-rasm. Respondentlarning elektron tijorat xizmatlarining sifatiga bergan bahosi⁷ (foizda).

So'rovnoma natijalari respondentlarning elektron tijorat xizmatlariga nisbatan munosabatini aks ettiradi.

"Juda yaxshi" – 40 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich elektron tijorat xizmatlarining rivojlanib borayotganini ifodalaydi. Yetkazib berish tizimining samaradorligi, to'lov tizimlarining xavfsizligi va qulayligi, mijozlarga xizmat ko'rsatishning yuqori darajasini natijasidir.

"O'rtacha" – 56,5 foizni tashkil etadi. Ko'pchilik foydalanuvchilar xizmatlarni qoniqarli deb baholagan, bu esa hali takomillashtirish talab etiladigan jixatlar borligini anglatadi. Bu tovar sifati va tavsifining mos kelmasligi, logistika muammolari va yetkazib berishdagi kechikishlar, mijozlarga xizmat ko'rsatishdagi kamchiliklarga duch kelish natijasi bo'lishi mumkin.

"Yomon" – 1,7 foizni tashkil etadi. Kam ulushga ega bo'lsa-da, ayrim foydalanuvchilar sifatdan norozi bo'lishgan. Noto'g'ri yoki sifatsiz tovar yetkazib berilishi, to'lov tizimidagi nosozliklar, yetkazib berish kechikishlari sabab bo'lishi mumkin.


"Umuman foydalangan emasman" – 1,7 foizni tashkil etadi. Elektron tijorat xizmatlaridan foydalanmaganlarning ulushi past bo'lib, asosan quyidagi omillar bilan izohlanadi: internet yoki texnologik imkoniyatlarning cheklanganligi, an'anaviy xarid qilish odatlarining ustunligi, onlayn to'lovlarga bo'lgan ishonchsizlikni anglatadi.

"Dunyoda elektron tijorat sohasining rivojlanishi yuqori sur'atlarda davom etmoqda. 2023-yilda global elektron tijorat bozori hajmi 6,3 trillion AQSh dollarga yetdi va kelgusi yillarda o'rtacha yillik o'sish sur'ati 14-15 foizni atrofida bo'lishi kutilmoqda. Mobil tijorat (M-commerce) bu sohaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, mobil qurilmalar orqali amalga oshiriladigan xaridlar chakana savdoning 61 foizini tashkil etadi"[].

7 Muallif tomonidan ijtimoiy so'rovnoma natijalari asosida tuzib chiqilgan.



“Sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari elektron tijoratda shaxsiylashtirilgan tajribalarni yaratishda va operatsiyalarni optimallashtirishda muhim rol o’ynamoqda. AI algoritmlari yordamida mijozlarga moslashtirilgan takliflar va xavfsizlikni ta’minlash imkoniyatlari kengaymoqda”[3]. “Xitoy dunyodagi eng yirik elektron tijorat bozori bo’lib, global B2C savdolarining 35,4 foiz ulushiga ega. Osiyo mintaqasi esa umumiy bozorda yetakchilik qilmoqda, bunda raqamli infratuzilma va mobil to’lov tizimlarining rivojlanishi katta ahamiyat kasb etmoqda” (5-rasm) [5].



5-rasm. Respondentlarning javobi bo'yicha elektron tijoratdan foydalanishdagi muammolar⁸ (foizda).

O'zbekistonda elektron tijorat foydalanuvchilari duch kelayotgan asosiy muammolar so'rovnom natijalarida aniq aks etgan bo'lib, ularni global tendensiyalar bilan solishtirish muhimdir. Asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

- tovar sifati va kafolatlarning yo'qligi (45,2 foizni) – iste'molchilarning huquqiy himoyasi zaifligi va sertifikatlash tizimining sustligi bilan bog'liq. Rivojlangan mamlakatlarda sifat nazorati va qaytarib berish mexanizmlari yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, O'zbekistonda bu sohada hali muhim islohotlar zarur.

- internet sifati va tezligi pastligi (41,7 foizni) – infratuzilmaning rivojlanmaganligi va provayder xizmatlarining barqaror emasligi bilan izohlanadi. Bu muammo ayniqsa qishloq hududlarida dolzarbdir.

- yetkazib berish muddati uzoqligi (20,9 foizni) – transport infratuzilmasi va logistika tizimlarining sustligi, xalqaro yetkazib berish cheklovlari bilan bog'liqdir.

- to'lov tizimlarining ishonchsizligi (15,7 foizni) – xavfsizlik muammolari, xalqaro to'lov tizimlari bilan integratsiyaning pastligi va foydalanuvchilarning raqamli moliyaviy savodxonligi yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lib, rivojlangan mamlakatlarda PayPal, Apple Pay kabi tizimlar yuqori darajadagi xavfsizlikni ta'minlaydi, O'zbekistonda esa bu platformalar cheklangan.

- iste'molchi huquqlarining kafolatlanmaganligi (0,9 foizni) – qonunchilik bazasining to'liq shakllanmaganligi bilan asoslanadi.

Shu bilan birga, 28,7 foizni respondent hech qanday muammoga duch kelmaganini bildirgan, bu esa elektron tijoratga bo'lgan ishonch ortib borayotganini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. Elektron tijorat rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili⁹

№	Savollar	1-javob	2-javob	3-javob
1.	Elektron tijoratdan foydalanishda to'lov tizimlariga qanchalik ishonasiz?	To'liq ishonaman	Qisman ishonaman	Umuman ishonmayman
	Natijalar, %	40,7	56,6	2,7
2.	Platformalarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarning ishonchligini qanday baholaysiz?	Juda ishonchli	Qisman ishonchli	Ishonchsiz
	Natijalar, %	28,9	68,4	2,6
3.	Elektron tijorat xizmatlari foydalanuvchilarining shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish qanchalik muhim?	Juda muhim	O'rtacha muhim	Umuman muhim emas
	Natijalar, %	89,6	8,7	1,7
4.	Elektron tijorat platformasida tovar sifati haqida fikringiz qanday?	Har doim yuqori	Ba'zida yuqori	Past sifatli
	Natijalar, %	24,3	71,3	4,3

8 Muallif tomonidan ijtimoiy so'rovnom natijalari asosida tuzib chiqilgan.

9 So'rovnom natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi



So'rovnoma natijalari O'zbekistonda elektron tijorat foydalanuvchilarining ishonch darajasi, ma'lumotlarning ishonchligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va tovar sifati bo'yicha qarashlarini aks ettiradi.

To'lov tizimlariga ishonch. Foydalanuvchilarning 40,7 foizi to'liq ishonadi, 56,6 foizi qisman ishonadi, 2,7 foizi esa umuman ishonmaydi. Bu raqamlar raqamli tranzaksiyalar qabul qilinayotgan bo'lsa-da, xavfsizlik bilan bog'liq xavotirlar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Kiberxavfsizlik muammolari global miqyosda ham elektron tijoratning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardandir.

Ma'lumotlarning ishonchligi. 28,9 foiz foydalanuvchilar platformalardagi ma'lumotlarni juda ishonchli, 68,4 foizi qisman ishonchli deb baholagan. Bu tovar tavsifi, sharhlar va sotuvchilarning ishonchligi bo'yicha shubhalar mavjudligini anglatadi. Dunyo miqyosida ham soxta sharhlar va noto'g'ri ma'lumot tarqatish elektron tijorat ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish. 89,6 foiz foydalanuvchilar bu masalaga yuqori e'tibor qaratilishini bildirgan, bu esa foydalanuvchilarning maxfiylik siyosatlariga bo'lgan ishonchini aks ettiradi. Biroq global miqyosda shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi ishonch darajasini pasaytiruvchi muhim omil bo'lib qolmoqda.


Tovar sifati. 24,3 foizi tovar sifatini doimiy ravishda yuqori deb baholasa, 71,3 foizni uni ba'zan yuqori deb hisoblaydi. Bu esa mijozlarni himoya qilish tizimining sustligi hamda kafolat va qaytarish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan bog'liq. Dunyo miqyosida ham tovar sifatiga nisbatan ishonchsizlik elektron tijorat rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi muhim omillardan biridir (6-rasm).

6-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijoratning o'ziga jalb qiladigan jihati¹⁰ (foizda).

So'rovnoma natijalari O'zbekistonda elektron tijorat foydalanuvchilarining ustuvor jihatlari aks ettiradi. Narx va chegirmalar (67 foizni) asosiy omil bo'lib, bu iste'molchilarning iqtisodiy manfaatga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Dunyo miqyosida ham raqobatbardosh narx siyosati va aksiyalar onlayn savdoni rag'batlantirishning muhim vositalaridan biridir.

Yetkazib berish tezligi va vaqt tejash (40,9 foizni) muhim faktor bo'lib, bu logistika infratuzilmasining ahamiyatini tasdiqlaydi. Global bozorlarda tezkor yetkazib berish tizimlari jadal rivojlanayotgan bo'lsa-da, O'zbekistonda bu yo'nalishda hali muammolar mavjud. Platformaning qulayligi (47 foizni) esa intuitiv interfeys va qulay navigatsiyaning iste'molchilar uchun dolzarbligini ko'rsatadi.

Tovar sifati (27 foizni) va tanlov imkoniyatining kengligi (2,6 foizni) nisbatan kam baholangan bo'lib, bu iste'molchilarning sifatdan ko'ra narx va qulaylikka ko'proq e'tibor qaratishini anglatadi. Rivojlangan bozorlarda sifat kafolatlari va mijozlar ishonchini oshirish bo'yicha kuchli mexanizmlar mavjud bo'lsa-da, O'zbekistonda bu yo'nalishda islohotlar zarur (7-rasm).



7-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijoratni rivojlantirish uchun muhim omillar¹¹ (foizda).

So'rovnoma natijalari xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijoratni rivojlantirish uchun zarur omillarni aniqlashga yordam beradi.

- yetkazib berish xizmatlarini kengaytirish (53,1 foizni) eng dolzarb masala bo'lib, logistika infratuzilmasining rivojlanishini talab etadi. Global tajribada Amazon va Alibaba kabi kompaniyalar tezkor va samarali yetkazib berish tizimlari orqali bozorda ustunlikka erishgan. O'zbekistonda esa ichki va xalqaro yetkazib berish xizmatlarini takomillashtirish zarur.

- to'lov tizimlarini rivojlantirish (51,3 foizni) elektron tijorat ishonchligini oshirishda muhim omil bo'lib, xavfsizlik, qulaylik va integratsiyani talab etadi. Rivojlangan mamlakatlarda PayPal, Stripe va kriptovalyutalar bilan ishlovchi tizimlar ommalashgan bo'lsa, O'zbekistonda bu yo'nalishda islohotlar zarur.

- texnologik infratuzilmani takomillashtirish (45,1 foizni) raqamli ekotizimning bardavomligini ta'minlaydi. Sun'iy intellekt, Big Data va avtomatlashtirilgan tizimlar biznes jarayonlarini samaraliroq qiladi. Jahon miqyosida bu texnologiyalar keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, O'zbekistonda ular hali to'liq joriy etilmagan.

¹⁰ Muallif tomonidan ijtimoiy so'rovnoma natijalari asosida tuzib chiqilgan.

¹¹ Muallif tomonidan ijtimoiy so'rovnoma natijalari asosida tuzib chiqilgan.



- marketing strategiyasini kuchaytirish (38,1 foizni) iste'molchilarni jalb qilish va brend raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur. Global bozorda raqamli marketingning turli vositalari, jumladan, maqsadli reklama va mijoz xatti-harakatlarini tahlil qilish keng qo'llaniladi. O'zbekistonda esa bu yo'nalish hali rivojlanish bosqichida.

- mahalliy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash (34,5 foizni) elektron tijoratning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Jahon tajribasida subsidiyalar, grantlar va soliq imtiyozlari orqali mahalliy biznes ekotizimi qo'llab-quvvatlanmoqda. O'zbekistonda ham tadbirkorlarni raqamli platformalarga jalb qilishni rag'batlantirish muhim (3-jadval).

3-jadval. Respondentlarning to'lov turi va xizmat sifati haqidagi fikrlari¹²

№	Savollar	1-javob	2-javob	3-javob	4-javob
1.	Elektron tijoratdan foydalanishda to'lovning qaysi turi sizga qulay?	Naqd to'lov	Bank kartalari	Mobil to'lov tizimlari (Payme, Click, Paynet)	Boshqalar
	Natijalar, foizni	15	20,4	62,9	1,8
2.	Elektron tijorat xizmatining sifati va narxini qanday baholaysiz?	Yuqori sifat va past narx	Yuqori sifat va mos narx	O'rtacha sifat va mos narx	Past sifat va yuqori narx
	Natijalar, foizni	12,5	31,3	52,7	3,6


So'rovnoma natijalari O'zbekistonda elektron tijorat foydalanuvchilarining to'lov afzalliklarini aks ettiradi.

- mobil to'lov tizimlari (62,9 foizni) yetakchi o'rin tutib, raqamli ekotizim rivojlanayotganini va qulaylik omili ustuvorligini tasdiqlaydi. Payme, Click, Paynet kabi xizmatlarning tezkorligi va integratsiya imkoniyatlari bu tendensiyaning mustahkamlaydi. Xalqaro miqyosda ham Apple Pay va Google Pay kabi mobil yechimlar yetakchilik qilmoqda.

- bank kartalari (20,4 foizni) ulushining nisbatan pastligi integratsiya muammolari va foydalanuvchilarning ehtiyotkorligi bilan izohlanadi. Global bozorda kartalar asosiy to'lov vositasi bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, O'zbekistonda ularning keng joriy etilishi uchun ekotizimni mustahkamlash zarur.

- naqd to'lov (15 foizni) an'anaviy usulga bo'lgan ehtiyoj hali ham saqlanayotganini ko'rsatadi. Jahon miqyosida naqd puldan voz kechish tendensiyasi kuchayib borayotgan bo'lsa-da, O'zbekistonda tranzaksiyalarni to'liq raqamlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilmogda.

- xizmat sifati bo'yicha o'rtacha sifat va mos narx (52,7 foizni) talabi elektron tijorat bozorida narx va sifat muvozanati muammosi mavjudligini tasdiqlaydi. Yuqori sifat va mos narx (31,3 foizni) esa iste'molchilarning sifatga e'tibor qaratishini ko'rsatadi. Global bozorda Amazon va AliExpress mijoz talablariga mos ravishda sifat va narx muvozanatini saqlashga intilmogda. O'zbekistonda esa tovar sifati va yetkazib berish ishonchligini oshirish muhim vazifa bo'lib qolmogda (8-rasm).



8-rasm. Respondentlarning elektron tijorat rivojlanishi uchun qaysi xizmatlar taqdim etilishi kerakligi haqidagi fikri¹³ (foizda)

So'rovnoma natijalari O'zbekistonda elektron tijorat foydalanuvchilarining ustuvor ehtiyojlarini aks ettiradi. Sifatli tovarlar kafolatlangan platformalar (67,3 foizni) eng talabgir yo'nalish bo'lib, bu ishonchli savdo muhitiga ehtiyoj yuqoriligini ko'rsatadi. Xalqaro bozorda Amazon, eBay kabi platformalar tovar sifati va qaytarish huquqini kafolatlaydi, O'zbekistonda esa sertifikatlash tizimini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Narxlar

¹² Muallif tomonidan ijtimoiy so'rovnoma natijalari asosida tuzib chiqilgan.

¹³ Muallif tomonidan ijtimoiy so'rovnoma natijalari asosida tuzib chiqilgan.



haqida batafsil ma'lumot (45,1 foizni) va tezkor yetkazib berish xizmatlari (48,7 foizni) foydalanuvchilar uchun muhim omillar sanaladi. Rivojlangan bozorlarda real vaqtda narxlarni taqqoslash tizimlari va tezkor yetkazib berish xizmatlari (Prime, AliExpress Logistics) odatiy holga aylangan. O'zbekistonda esa logistik infratuzilma va ma'lumot shaffofligini oshirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Mahalliy tovarlar bozorining kengayishi (38,9 foizni) elektron tijoratning ichki ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashdagi rolini ko'rsatadi. Dunyo tajribasida mahalliy brendlarni rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Kredit kalkulyator xizmatining qo'shilishi (1,8 foizni) ulushi nisbatan past bo'lsa-da, bu to'lov imkoniyatlarini kengaytirish zaruratini bildiradi. Xalqaro bozorda Buy Now, Pay Later (BNPL) kabi tizimlar rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, O'zbekistonda bunday mexanizmlarni joriy etish uchun moliyaviy infratuzilmani takomillashtirish lozim (4-jadval).

4-jadval. Elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha respondentlarning fikrlari¹⁴

№	Savollar	1-javob	2-javob	3-javob	4-javob	5-javob	6-javob
1.	Elektron tijoratda ishonch muhitini yaxshilash uchun qanday takliflaringiz bor?	Platformalar faoliyatining oshkoraligi	Xaridorlarning shaxsiy ma'lumotlarini himoyalash	Tovar sifatining kafolati	Platformalar haqida ko'proq ma'lumot berish	Tovarni qabul qilib olgandan so'ng to'lovni amalga oshirish	Tovarni qaytarish jarayonini osonlashtirish
	Natijalar, foizni	18,8	26,8	40,2	12,5	0,9	0,9
2.	Xizmat ko'rsatish sohasidagi elektron tijoratda qanday yangiliklarni ko'rishni xohlaysiz?	Innovatsion to'lov tizimlari	Yangi xizmat turlari (masalan, sog'liqni saqlash yoki huquqiy maslahat)	Foydalanuvchilar uchun maxsus chegirmalar	Platformalararo integratsiya	-	-
	Natijalar, foizni	22,3	34,8	29,5	13,4	-	-

So'rovnoma natijalari elektron tijoratda ishonch muhitini shakllantirish va xizmatlarni diversifikatsiya qilish bo'yicha foydalanuvchilarning asosiy talablarini aks ettiradi.

- tovar sifatining kafolati (40,2 foizni) eng muhim omil bo'lib, bu foydalanuvchilarning sifatsiz tovar va soxta brendlarga duch kelish xavotirini ko'rsatadi. Rivojlangan bozorlarda Amazon va Aliexpress kabi platformalar yetkazib beruvchilarni qat'iy nazorat qilib, ishonchli sotuvchilarga ustuvorlik beradi. O'zbekistonda esa sertifikatlash va kafolat mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi.

- shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish (26,8 foizni) elektron tijoratning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib, xalqaro tajribada GDPR va CCPA kabi qonunchilik normalari orqali himoyalanganadi. O'zbekistonda esa maxfiylik siyosatini takomillashtirish va kiberxavfsizlik choralari kuchaytirish zarur.

- platformalar faoliyatining oshkoraligi (18,8 foizni) va platformalar haqida ko'proq ma'lumot berish (12,5 foizni), shaffoflik muammolariga e'tibor qaratish zarurligini bildiradi. Bu algoritmlar ochiqqligi, sharhlarning haqqoniyligi va narx shakllanishining manipulyatsiyasiz bo'lishi bilan bog'liq.

- tovarni qabul qilib olgandan so'ng to'lov qilish (0,9 foizni) va qaytarish jarayonini osonlashtirish (0,9 foizni) kam tilga olingan bo'lsa-da, xalqaro bozorda bunday tizimlar ishonchni mustahkamlovchi omillar sifatida qo'llanilmoqda. O'zbekistonda ularni joriy etish logistika va qonunchilikdagi islohotlarni talab qiladi.

Elektron tijorat xizmatlarini diversifikatsiya qilish bo'yicha:

- yangi xizmat turlari (34,8 foizni) talabgir yo'nalish bo'lib, sog'liqni saqlash va huquqiy maslahat kabi xizmatlarning integratsiyasi bozorda yangi dinamikani yuzaga keltirishi mumkin.

- maxsus chegirmalar (29,5 foizni) va innovatsion to'lov tizimlari (22,3 foizni) raqobatbardoshlikni oshiruvchi omillar bo'lib, xalqaro tajribada dinamik narx belgilash, bonus tizimlari va kriptoalyuta asosida tranzaksiyalar keng qo'llanilmoqda.

O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanishi jahon tendensiyalariga mos ravishda kechayotgan bo'lsa-da, uning barqarorligi va samaradorligi bir qator omillarga bog'liq. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, asosiy foydalanuvchilar 26-45 yosh oralig'idagi, viloyat markazlarida yashovchi va yollanma (oylik yoki haq evaziga ishlovchi) mehnat bilan band shaxslardan iborat bo'lib, ular zamonaviy texnologiyalarni faol qo'llaydi va onlayn xaridlarni afzal ko'radi.

14 Muallif tomonidan ijtimoiy so'rovnoma natijalari asosida tuzib chiqilgan.



Elektron tijoratning kengayishi internet sifati, logistika infratuzilmasi, xavfsiz to'lov tizimlari va iste'molchi huquqlarining himoyalaniish darajasiga bog'liq. Aksariyat foydalanuvchilar xaridlarni mobil qurilmalar orqali amalga oshirishi mobil texnologiyalarning ahamiyatini yanada oshiradi. Shu bilan birga, tovar sifati, yetkazib berish tezligi va to'lov tizimlarining ishonchiligi hal qiluvchi omillar bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijoratning rivojlanishi zamonaviy texnologik taraqqiyot, raqamli infratuzilma holati, aholi va tadbirkorlarning raqamli savodxonligi, shuningdek davlat tomonidan yaratilgan muhitga bevosita bog'liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, elektron tijorat xizmatlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar — internet tezligi va qamrovi, xavfsiz to'lov tizimlari, foydalanuvchilar ishonchi va qonunchilikning moslashuvchanligidir. Shu bilan birga, marketing strategiyalarining zamonaviylashuvi, logistika tizimlarining samaradorligi ham elektron tijoratning muvaffaqiyatida muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridagi tahlillarimiz asosida quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish: Yurtimizning barcha hududlarida keng polosali internet tarmog'ini joriy etish va raqamli xizmatlarga qulay kirishni ta'minlash elektron tijoratni rivojlantirishning asosiy shartidir.

Yagona elektron to'lov tizimlarini takomillashtirish: Foydalanuvchilar uchun ishonchli, xavfsiz va qulay to'lov tizimlarini joriy etish orqali onlayn xizmatlarga bo'lgan talabni oshirish mumkin.

Huquqiy va institutsional bazani kuchaytirish: Elektron tijorat faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish, shuningdek, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tizimini mustahkamlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Laudon, K.C., & Traver, C.G. (2022). E-commerce: Business, Technology, Society. Pearson.
2. Molla, A., Heeks, R. (2007). Exploring E-commerce Benefits for Businesses in a Developing Country. The Information Society, 23(2), 95–108.
3. OECD (2019). Measuring the Digital Transformation: A Roadmap for the Future. OECD Publishing.
4. Javlonov, A. (2021). Elektron tijoratni rivojlantirishning iqtisodiy asoslari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №6.
5. Zhou, L., Dai, L., & Zhang, D. (2007). Online Shopping Acceptance Model — A Critical Survey of Consumer Behavior. Electronic Commerce Research and Applications, 6(4), 456–468.
6. Axmedov B.I. Raqamlashtirish davrida elektron tijoratning rivojlanishi // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). 2023. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamlashtirish-davrida-elektron-tijoratning-rivojlanishi> (дата обращения: 04.02.2025).
7. <https://el.tfi.uz/images.pdf>; https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/ozbekiston-milliy-elektron-tijorat-strategiyasini-ishga-tushirmoqda_uz?s=233; <https://advice.uz/oz/document/2456>; <https://staff.tiame.uz/storage/users/845/books/6X9IGHRvOWFC1EtLMmoNaLYwPv9pmJFYFsNw2jMI.pdf>
8. https://www.researchgate.net/publication/378543140_Elektron_tijoratning_zamonaviy_iqtisodiyotga_ta'sirini_o'rganish_va_uni_rivojlantirishning_asosiy_yo'nalishlarini_anqlash
9. <https://www.simpleglobal.com/uz/blog/top-5-ecommerce-trends-for-2023-and-beyond/>
10. Hakimjanova D.K. Xorijiy davlatlarda elektron tijoratning rivojlanish tendensiyalari // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). 2024. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-davlatlarda-elektron-tijoratning-rivojlanish-tendensiyalari> (дата обращения: 04.02.2025).
11. znesgoya.uz
12. Yusupov M.A. Xizmatlar sohasida raqamli platformalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi // Iqtisodiyot va innovatsiyalar. – 2024. – № 1. – S. 34–45. URL: <https://iqtisodiyot.tsue.uz/jurnal/2024/1>.
13. Андреев С.Н. Цифровые технологии в управлении электронной коммерцией [Текст]. – Москва: Юрайт, 2022. – 210 с. URL: <https://urait.ru/book/tsifrovye-tehnologii-v-upravlenii-elektronnoy-kommertsiei>.
14. Бакеев М.Б. Цифровая экономика и электронная коммерция: теоретические и практические аспекты [Текст]. – Санкт-Петербург: СПбГУ, 2020. – 180 с. URL: <https://www.spbu.ru/izdaniya/>.
15. Белов В.А. Электронная коммерция в условиях глобальной конкуренции // Вестник Санкт-Петербургского университета. Экономика. – 2023. – Т. 39, № 2. – С. 145–158. DOI: 10.21638/spbu05.2023.205. URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=51234567>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>